

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURASI
HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI
KURASHISH DEPARTAMENT

“RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA IQTISODIY
XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI TO‘PLAMI

FUQAROLAR PLASTIK KARTALARI KIBRXAVFSIZLIGINI TA’MINLASH
TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH” (MY CARD MOBIL ILOVASI)

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

*Elektron nashr. 329 sahifa.
2026-yil, fevral.*

Bosh muharrir:

Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Nasimov Rashid

Muharrir:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih:

Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner:

Egamberdiyev Elyor

Tahrir hay'ati:

- | | |
|--|---------------------------------------|
| 1. Mo'minov Bahodir (hay'at raisi) | 12. Xamza Eshankulov (O'zbekiston) |
| 2. Rashid Nasimov (hay'at raisi o'rinbosari) | 13. Iles Xujayarov (O'zbekiston) |
| 3. Marat Raxmatullayev (O'zbekiston) | 14. Mexriddin Raximov (O'zbekiston) |
| 4. Muxammadjon Musaev (O'zbekiston) | 15. Murodjon Sultanov (O'zbekiston) |
| 5. O'tkir Xamdamov (O'zbekiston) | 16. Bekmurodov Ulug'bek (O'zbekiston) |
| 6. Ali Xikmet (AQSh) | 17. Alisher Qobilov (O'zbekiston) |
| 7. Dmitriy Rodionov (Rossiya) | 18. Iroda Abdullaeva (O'zbekiston) |
| 8. Dilnoza Muhammadieva (O'zbekiston) | 19. Burova Ekaterina (Rossiya) |
| 9. Gayrat Ishanxodjaev (O'zbekiston) | 20. Xodiyeva Gulmira (O'zbekiston) |
| 10. Nodir Rahimov (O'zbekiston) | 21. Sultonboyeva Munira (O'zbekiston) |
| 11. Akmal Abdusalomov (J. Koreya) | |

Jamoatchilik kengashi:

- | | |
|------------------------------------|--------------------------------------|
| 1. Gul Tokdemir (Turkiya) | 8. Olga Dzyabenko (Ispaniya) |
| 2. Umid Axmedov (Daniya) | 9. Stefani Estlund (Lyuksemburg) |
| 3. Marko Porta (Italiya) | 10. Sanjar Iskandavor (O'zbekiston) |
| 4. Xristo Beloov (Bolgariya) | 11. Aydos Sarsembayev (Qirg'iziston) |
| 5. Muxriddin Muhitdinov (J.Koreya) | 12. Svetomir Vasilev (Bolgariya) |
| 6. Boshtyan Brumen (Sloveniya) | 13. Pap Solt (Vengriya) |
| 7. Bibigul Koshoeva (Qirg'iziston) | |



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA MOLIYA SOHASINING INNOVATSION RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI.....	7
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Mamadyarovna Go'zal Norboyevna	
MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI CHEKKA HUDUDLARDA IQTISODIY FAOLLIKNI OSHIRISH MEKANIZMLARI	13
Eshov Mansur Po'latovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BOSH PROKURATURA HUZURIDAGI IQTISODIY JINOYATLARGA QARSHI KURASHISH DEPARTAMENTI FAOLIYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI.	20
Babadjanov Atxam Axmadjanovich	
ПОВЫШЕНИЕ ЭФФЕКТИВНОСТИ УПРАВЛЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫМИ ПРОЦЕССАМИ ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В КОММЕРЧЕСКИХ БАНКАХ.....	26
Ахмедов Самандар Сайфуллоевич	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA XIZMATINING FISKAL FAOLIYATIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR TAHLILI	32
Farxodov Farrux Furqatovich, Toshpo'lotova E'zoza Latifjonovna	
SOLIQ MA'MURCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI QISQARTIRISH YO'LLARI.....	38
Mamatkulov Salimjon Raxmonkulovich	
IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHDA BOJXONA TO'LOVLARINI UNDIRISHNI RAQAMLASHTIRISHNING AYRIM MASALALARI.....	43
Pardayev To'liqin Nasirovich	
QARZ MUNOSABATLARINI RAQAMLASHTIRISH: IQTISODIY VA HUQUQIY MUNOSABATLARDAGI AHAMIYATI VA ISTIQBOLLARI.....	47
Quramboev Jamshid Rashid o'g'li	
EVALUATING THE EFFICIENCY OF COMMERCIAL BANKS IN UZBEKISTAN USING A MULTIPLE LINEAR REGRESSION MODEL.....	50
Rakhimberdiev Kuvonchbek Bakhtiyorovich	
TASHQI SAVDO OPERATSIYALARIDA DEBITOR QARZDORLIKLARNI BOSHQARISHNING RAQAMLI MODELI VA RISK-MONITORING TIZIMI.....	56
Tashmuxe'dov Dilmurod Mirabzalovich	
WAYS TO REDUCE THE RISK OF DIGITAL ATTACKS IN BANKING AND GOVERNMENT FINANCIAL SYSTEMS	62
M.N. Umarova	
MOLIYALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSIYA QILISH KICHIK BIZNES IQTISODIY XAVFSIZLIGINI MUSTAHKAMLASH OMILI SIFATIDA.....	69
Abduxakimov Eldor Djaloliddinovich	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESDA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA'MINLASHNING NAZARIY MASALALARI	76
Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich	
MAHALLIY GILAM ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALAR RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH VA IQTISODIY XAVFSIZLIKDA TAHDIDLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	81
Arziyeva Sevinch Shomurot qizi	
TASHQI SAVDODA XATARLARNI KAMAYTIRISHDA SAVDONI MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH.....	85
Babadjanov Shuhrat Atxamovich	
KORXONALAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING KONTSEPTUAL VA METODOLOGIK ASOSLARI	92
Jamoliddinov Jobirbek Bohodir o'g'li	



KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING MOLIYAVIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHNING METODOLOGIK JIHATLARI.....	97
Karimov Alibek Valiyevich	
KICHIK BIZNES KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH OMILLARI NOMUTANOSIBLIGINING IQTISODIY XAVFSIZLIKKA TA’SIRINI BAHOLASH VA UNI BARTARAF ETISH MEXANIZMI.....	102
Kaypnazarova Gulshad Xojamuratovna	
КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В МАЛОМ БИЗНЕСЕ С ПОМОЩЬЮ SWOT-АНАЛИЗА.....	108
Набиев Бехзод Шавкатович	
TADBIRKORLIK VA KICHIK BIZNESNING IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASH HAMDA QO’LLAB-QUVVATLASHNING ILMIY-AMALIY JIHATLARI.....	114
Tashmuxeimedova Yayra Atxamovna, Teshayev Sayimbek	
O’ZBEKISTONDA KICHIK BIZNESNI MOLIYALASHTIRISH ORQALI AHOLI BANDLIGINI OSHIRISH YO’LLARI.....	120
Toxirova Mushtariybegim Yashnarjon qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA MOLIYAVIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH STRATEGIYASI.....	124
Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Umarova Nargiza Xoldarovna	
РАЗРАБОТКА ЭФФЕКТИВНОЙ СТРАТЕГИИ ФИНАНСОВОЙ БЕЗОПАСНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ ТЕКСТИЛЬНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	134
Турсунов Бобир Ортикмирзаевич	
KIMYO SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA MARKETING VOSITALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	141
Tursunxo’jayev Sardor Jamoliddin o’g’li	
MAMLAKAT QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARI MOLIYAVIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLARNING EKONOMETRIK TAHLILI.....	147
Umarova Nargiza Xoldarovna	
YENGIL SANOAT KORXONALARI IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI.....	154
Sadriddinova Nigora	
RAQAMLI MOLIYAVIY INKLYUZIYA VOSITALARI ORQALI TUMANLAR O’RTASIDAGI IJTIMOIIY FARQNI KAMAYTIRISH MODELI.....	162
Xakimov Ziyodulla Ahmadovich, Tursunov Bobir Ortikmirzayevich, Adashaliyev Baxtiyorjon Valisher o’g’li	
O’ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING O’RNI	170
Jaloliddinov Anvar Jaloliddin o’g’li	
YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH: O’ZBEKISTON BOJXONA ORGANLARI TAJRIBASI	176
Makkamov Z.X., Soatov S.S.	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI XALQARO SAVDODA IQTISODIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH MEXANIZMLARI	182
Muxtorov Boburmizro Bahodir o’g’li	
RAQAMLI TO’LOV TIZIMLARI VA ELEKTRON HISOB-KITOBLARNING YASHIRIN IQTISODIYOT ULUSHINI KAMAYTIRISH MEXANIZMLARI.....	188
Norsafarov Bunyodshoh Muhiddinzoda	
PROSPECTIVE INDICATORS FOR MANAGING THE LEGALIZATION OF THE INFORMAL SECTOR AND INFORMAL EMPLOYMENT IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	192
Qoraboyev Nuriddin Pardaboy o’g’li	
YASHIRIN IQTISODIYOT KO’LAMINI QISQARTIRISHDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN AHOLIGA KO’RSATILAYOTGAN BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING RAQAMLI YO’NALISHLARI... 196	
To’patillayeva Gulnoza Sirojiddin qizi	
BIG DATA TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA SOLIQ RISKLARINI ANIQLASH VA YASHIRIN IQTISODIYOTNI QISQARTIRISH IMKONIYATLARI.....	201
Yakubova Nargiza Tursunbayevna, Maxmudov Jasurbek Ulug’bek o’g’li	



SOLIQLAR YOKI BOSHQA MAJBURIY TO'LOVLARNI TO'LASHDAN BO'YIN TOVLASH JINOYATI VA UNING MAMLAKAT IQTISODIY XAVFSIZLIGIGA TA'SIRI.....	208
Axmedov Zafar Bozorboyevich	
DAVLATLARNING IQTISODIY JINOYATCHILIKKA QARSHI KURASHDAGI XALQARO HAMKORLIGI: XALQARO TASHKILOTLAR, FATF STANDARTLARI VA AMALIY MEXANIZMLAR.....	213
Tashmuxeimovda Yayra Atxamovna	
IQTISODIY JINOYATLARNI ANIQLASH VA ULARGA QARSHI KURASHISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYALARINING O'RNI.....	221
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, Tursunov Bobir Ortqimrizeyevich, Tashmuxeimovda Yayra Atxamovna	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH IMKONIYATLARI.....	226
Azlarova Mushtariybegim Abror qizi	
RAQAMLI TO'LOV TIZIMLARI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA DAVLAT INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARINING ROLI.....	232
Kurbanbekova Mohichehra Turobjonovna, Azlarova Aziza Axrorovna	
MOLIVAVIY SAVODXONLIK TUSHUNCHASI VA UNING IQTISODIY RIVOJLANISHDAGI O'RNI.....	238
Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH BO'YICHA XORIJIY ILMIY YONDASHUVLAR TAHLILI.....	244
Kurbanbekova Mohichehra Turobjonovna, Muzaffarova Dilbar Mamalatif qizi	
MAHALLIY OLIMLAR TADQIQOTLARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIK VA BANK XIZMATLARI MASALALARI.....	251
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
BANK PLASTIK KARTALARI VA SHAXSIY HISOB RAQAMLARINI NAZORAT QILISH TIZIMINING NAZARIY ASOSLARI.....	258
Azlarova Aziza Axrorovna, Sattorova Nasiba G'anijon qizi	
AUTENTIFIKATSIYA SXEMALARINI TAHLIL QILISH VA ULARNING AFZALLIKLARI HAMDA KAMCHILIKLARI.....	265
Ahmedova Nilufar Shukratovna, Kurbanbekova Mohichehra Turobjonovna	
PLASTIK KARTALAR XAVFSIZLIGIGA TA'SIR KO'RSATUVCHI MAVJUD KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI TAHLILI.....	272
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi	
ILG'OR XORIJIY MAMLAKATLARDA PLASTIK KARTALAR VA RAQAMLI TO'LOVLAR XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH TAJRIBALARI: FINTECH PLATFORMALARINING QIYOSIY TAHLILI VA MYCARD MOBIL ILOVASINI TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR.....	278
Kurbanbekova Mohichehra Turobjonovna, Mashrapova Sabina Turobjonovna	
AHOLI MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISHDA IJTIMOIIY TARMOQLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASH MEZONLARI VA INDIKATORLARI.....	285
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
AHOLINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH MUAMMOLARI.....	292
Eshpulatova Muazzam Barnoyevna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОЦЕНКИ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ И ЕЁ ВЛИЯНИЕ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ.....	298
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна	
ОЦЕНКА ВЛИЯНИЯ ЦИФРОВОЙ ЗРЕЛОСТИ ЭЛЕКТРОННОЙ КОММЕРЦИИ НА КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА.....	305
Назарова Гулчебра Нурмухамбетовна	
MOLIVAVIY INKLIZIYADA KIBERXAVFSIZLIKINING O'RNI VA UNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: BANK MOBIL ILOVALARI MISOLIDA.....	313
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
MOLIVAVIY XIZMATLARDAN FOYDALANISHDA SOLIQ SAVODXONLIGINING O'RNI.....	318
Irgashev Anvar Farxodovich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA ALTERNATIV KREDIT SKORING TIZIMLARINING AHAMIYATI.....	322
Lazizbek Ravshanov Baxtiyor o'g'li	



THE ECONOMIC ESSENCE OF LABOR AND ITS INTERPRETATION IN THE CONTEXT OF INTERNATIONAL FINANCIAL REPORTING STANDARDS.....	325
Nomozov Ilhomjon Ziyadullah ugli	
O‘ZBEKISTON KORXONALARIDA BIZNES JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH AMALIYOTINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	328
Qarshiyeva Moxinur Olim qizi	
THE ROLE OF RITUALS IN ATTRACTING TOURISTS.....	331
Freshta Qayoumi	
O‘ZBEKISTONDA REKREATSION TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-AMALIY O‘ZIGA XOS JIHATLARI.....	333
Po‘latova Mavluda Sanjar qizi	
O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TARMOQLAR KESIMIDA INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI BAHOLASH	336
Otajonova Charosxon Polvonquli qizi	
MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI.....	340
Valijonov X.A.	



MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIDAN O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI VA RIVOJLANISH MUAMMOLARI

Valijonov X.A.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
“Buxgalteriya hisobi” kafedrası
mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur tezisda O‘zbekiston Respublikasida Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS)ni joriy etishning ahamiyati, mavjud imkoniyatlari va amaliyotda uchrayotgan muammolar tahlil qilingan. Shuningdek, MHXSga o‘tish jarayonini takomillashtirish hamda moliyaviy hisobotlarning xalqaro talablarga mosligini ta’minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari, MHXS, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, xalqaro standartlar, investitsiyalar, buxgalterlar malakasi, audit.

Abstract. This thesis analyzes the importance, opportunities, and practical challenges of implementing International Financial Reporting Standards (IFRS) in the Republic of Uzbekistan. The study also proposes recommendations for improving the transition process and ensuring compliance of financial reporting with international requirements.

Keywords: International Financial Reporting Standards, IFRS, accounting, financial reporting, international standards, investments, professional accountants, audit.

Аннотация. В данной статье проанализированы значение, возможности и проблемы внедрения Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО) в Республике Узбекистан. Также разработаны предложения по совершенствованию процесса перехода на МСФО и обеспечению соответствия финансовой отчетности международным требованиям.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности, МСФО, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, международные стандарты, инвестиции, квалификация бухгалтеров, аудит.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining hozirgi davrda jahon global iqtisodiyoti bilan integratsiyalashuvi va respublikaga ko‘plab xorijiy investorlarning kirib kelayotgani bugungi kunda amalda qo‘llanilayotgan buxgalteriya hisobining milliy tizimini moliyaviy hisobotning xalqaro tizimiga o‘tkazishni talab qilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS) tizimiga o‘tishida bajariladigan vazifalar, imkoniyatlar va mas’ul davlat organlari O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorida¹ belgilab qo‘yilgan.

Respublikada amaldagi moliyaviy hisobotlarning milliy tizimini Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga o‘tkazishda davlat va nodavlat tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatida bir qator muammolar mavjud.

Ushbu maqolada yuqorida ko‘rsatilgan muammolarning sabablari, ularning tahlili va hal etish yo‘llari ko‘rib chiqilgan.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari (MHXS, IFRS – *International Financial Reporting Standards*) korxona faoliyatiga nisbatan iqtisodiy qarorlar qabul qilish uchun tashqi foydalanuvchilarga zarur bo‘ladigan moliyaviy hisobotlarni tuzish qoidalarini belgilovchi hujjatlar (standartlar va izohlar) to‘plamidir.

1 <https://lex.uz/docs/-4746047>



Xalqaro miqyosda moliyaviy hisobotlardan foydalanishni yaxshilash va uyg'unlashtirish maqsadida 1973-yilda bir nechta mamlakatlarning buxgalterlar va auditorlar uyushmalari xalqaro professional nodavlat tashkiloti – Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo'yicha Qo'mitani (MHXSQ, *International Accounting Standards Committee – IASC*) tashkil etdilar.

1981-yildan boshlab MHXSQ moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini joriy etish va xalqaro hisobga oid hujjatlarni muhokama qilishda mustaqil tashkilot sifatida faoliyat yurita boshladi. 2001-yilda esa qayta tashkil etish doirasida Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo'yicha Qo'mita Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari bo'yicha Kengashga (MHXSK) aylantirildi.

1973-yildan 2001-yilgacha standartlar MHXSQ tomonidan ishlab chiqilgan va ular *International Accounting Standards (IAS)* nomi ostida e'lon qilingan. 2001-yildan boshlab esa MHXSK yangi standartlarni *International Financial Reporting Standards (IFRS)* nomi bilan nashr etib kelmoqda.

Moliyaviy hisobot standartlarining asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni taqdim etishda tafovutlarni kamaytirish, ma'lumotlar sifatini va taqqoslanishini yaxshilash hamda standartlarni unifikatsiyalashtirish iborat. Yagona standartlar turli kompaniyalar faoliyati natijalarini taqqoslash va baholash imkonini yaratadi, shu jumladan xalqaro miqyosda ham samaradorlikni oshiradi.

Qisqacha aytganda, MHXSning asosiy maqsadi moliyaviy muhitda barqarorlik va shaffoflikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu standartlar yordamida turli mamlakatlar korxonalari bir-birining moliyaviy hisobotlarini tushunishi va kelgusidagi hamkorlik bo'yicha asosli qarorlar qabul qilishi mumkin.

Bugungi kunda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari 40 dan ortiq standartlarni o'z ichiga oladi. Ular korxonalarning barcha moliyaviy va buxgalteriya faoliyatini qamrab oladi. Jumladan, MHXS (IAS) 1 "Moliyaviy hisobotni taqdim etish", MHXS (IAS) 2 "Zaxiralar", MHXS (IAS) 7 "Pul mablag'larining harakati to'g'risidagi hisobot", MHXS (IAS) 12 "Daromad solig'i", MHXS (IFRS) 6 "Foydali qazilmalar zaxiralarini qidirish va baholash", MHXS (IFRS) 17 "Sug'urta shartnomalari", MHXS (IAS) 41 "Qishloq xo'jaligi" va boshqa standartlarni misol sifatida keltirish mumkin.

Bir turdagi hisobot tizimidan yangi turdagi hisobot tizimiga o'tishda ko'plab savollar va muammolar yuzaga kelishi tabiiy. Shu sababli yangi tizimga o'tish tizimli yondashuv va tegishli uslubiy ta'minotsiz amalga oshirilishi qiyin. O'zbekiston Respublikasining MHXS tizimiga o'tishi uchun zarur imkoniyatlarni yaratish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2020-yil 24-fevralda PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorni² imzoladi.

Mazkur qarorda asosiy maqsad sifatida xorijiy investorlarni zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash va xalqaro moliya bozorlariga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish belgilangan.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari orqali investorlar va boshqa moliyaviy ma'lumotlardan foydalanuvchilar (ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, biznes hamkorlar va boshqalar) o'zlarini qiziqtirgan tashkilot haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bu manfaat ularning iqtisodiy, investitsion va huquqiy qarorlar qabul qilish zaruratidan kelib chiqadi.

Masalan, ular aksiyadorlar kiritgan mablag'lar qanchalik daromad keltirayotgani, biznes mulki qanchalik o'sgani, qarzdorlik holati qay darajada ekanligi kabi masalalar bilan qiziqadilar. Bundan tashqari, potensial investor ma'lum bir biznesga mablag' kiritish yoki kiritmaslik to'g'risidagi qarorini qabul qilishdan oldin uni puxta baholashga intiladi. Bunda u tashkilotni faoliyat yuritayotgan tarmoqdagi boshqa kompaniyalar bilan taqqoslashga ehtiyoj sezadi.

Shu sababli tashkilotning iqtisodiy, mulkiy va moliyaviy holati hamda o'tgan davrdagi faoliyati natijalari haqida raqamli ma'lumotlar va tushuntiruvchi izohlardan iborat moliyaviy hisobotlarga ehtiyoj yuzaga keladi.

Ushbu qarorga binoan, yirik soliq to'lovchi hisoblanadigan aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, korxonalar va yuridik shaxslar 2021-yil yakunidan boshlab majburiy tartibda moliyaviy hisobotlarni MHXS bo'yicha tuzishi belgilab qo'yildi. Ular 2021-yil 1-yanvardan boshlab buxgalteriya hisobini MHXS asosida tashkil etishlari hamda buxgalteriya xizmatlarini xalqaro standartlarni sifatli qo'llay oladigan xodimlar bilan ta'minlashlari shart.

O'zbekistonda MHXSni qo'llash uchun Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 24-avgustda 507-sonli "Moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini e'tirof etish va unga izoh matni tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi qaror³ qabul qilindi. Ushbu hujjatda Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlarini e'tirof etish va unga izoh matnini kelgusida O'zbekistonda qo'llash bo'yicha ish yuritish tartibi belgilab berildi. MHXSga o'tish tartibi quyidagicha belgilandi:

Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) MHXS fondi bilan hujjatlarni davlat tiliga tarjima qilish bo'yicha shartnoma tuzadi.

2 <https://lex.uz/docs/-4746047>

3 <https://lex.uz/docs/-4966554>



Barcha hujjatlar ularni O‘zbekistonda qo‘llash uchun ekspertizadan o‘tkaziladi.

Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) MHXS hujjatlari O‘zbekistonda amaliyotga kiritilganligi haqida buyruq chiqaradi.

Kelgusida MHXS hujjatlari matnlari Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) saytlarida davlat va boshqa tillarda nashr etib boriladi hamda ularning doimiy yangilanib borilishi ta‘minlanadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib holda, MHXSga o‘tish uchun barcha imkoniyatlar mavjuddek ko‘rinadi. Ammo ushbu yangi moliyaviy hisobotlarni taqdim etish tizimining O‘zbekistonda to‘laqonli ishlashini mazkur yo‘nalishni yaxshi biladigan yetuk mutaxassislar ta‘minlashi mumkin.

Kerakli bilim va ko‘nikmalarga ega ko‘p sonli malakali mutaxassislarni tayyorlashni hisobga olgan holda, Prezident qarorida milliy kadrlarni tayyorlashga mutlaqo yangi kompleks yondashuv nazarda tutilgan. 2020–2025-yillarda MHXS bo‘yicha o‘qitish va malaka oshirish, shuningdek, buxgalterlarning xalqaro sertifikatlashi (ACCA dasturi bo‘yicha) doirasida imtihonga ro‘yxatdan o‘tishga sarflanadigan mablag‘lar ilk bor respublika budjetidan qoplab beriladi. Ushbu xarajatlar oliy ta‘lim muassasalarining “Buxgalteriya hisobi” va “Audit” fanlari o‘qituvchilari, davlat organlari xodimlari, shuningdek, oliy ta‘lim muassasalari talabalari va bitiruvchilari uchun o‘qishni tamomlagandan keyin 6 oy mobaynida qoplab berilishi mumkin.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, bozor iqtisodiyotiga o‘tishga bo‘lgan ehtiyoj yuzaga keldi va shu yo‘nalishda tegishli ishlar amalga oshirila boshlandi. Bu jarayonda sobiq sovet davri buxgalteriya uslublaridan bosqichma-bosqich voz kechildi hamda moliyaviy hisobotlar jahonda qabul qilingan tamoyillarga yaqinlashtirila boshlandi. Qonunchilik asosida turli milliy buxgalteriya standartlari ishlab chiqildi, buxgalterlar uyushmalari huzurida xalqaro buxgalteriya amaliyotlarini o‘rgatish va buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari shakllandi.

O‘zbekistonda olib borilgan qonunchilik, ta‘lim va malaka oshirish amaliyotlarining yakuni MHXS bilan integratsiyalashuvga olib kelishi kutilgan edi. Biroq MHXSga o‘tish jarayoni ma‘lum muddat cho‘zildi. Chunki 2016-yilga qadar O‘zbekiston iqtisodiy tizimida tashqi iqtisodiy aloqalarni bosqichma-bosqich rivojlantirish va ichki imkoniyatlarga tayanish tamoyili ustuvor bo‘lgan. Davlatning milliy iqtisodiyotdagi o‘rni mulkdorlar sinfiga nisbatan kattaroq bo‘lgan sharoitda moliyaviy axborotdan foydalanuvchi asosiy tomon hukumat tashkilotlari, ayniqsa, soliqqa tortish organlari bo‘lib qoladi.

Natijada buxgalteriya hisoboti tizimlari ko‘proq soliq hisobotlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi hamda tashqi investorlar va ichki mulkdorlarning axborotga bo‘lgan manfaatlari keyingi darajaga tushib qoladi. Soliq organi va investorni moliyaviy hisobotda qiziqitiradigan jihatlar bir xil emas. Masalan, soliq organini hisobotda tashkilot daromadining ko‘proq aks ettirilishi va undan qancha soliq undirish mumkinligi qiziqitiradi. Shu sababli soliq yo‘riqnomalariga ko‘ra, korxonalarning ayrim xarajatlari sof daromadni kamaytirishga ruxsat bermasligi yoki asosiy vositalar eskirishi me‘yorlarining qat‘iy chegaralarda belgilanishi mumkin.

Investor uchun esa asosiy masala tashkilotning real sof daromadi va aktivlarning haqqoniy qiymatidir. Chunki investorni budjetga ko‘proq soliq undirish emas, balki tashkilotning qanchalik samarali faoliyat yuritayotgani qiziqitiradi. Shuning uchun investor hisobotda aktivlarning haqqoniy qiymatda, majburiyatlar va xarajatlarning to‘liq, shuningdek, daromadlarning oshirilmagan holda ko‘rsatilishini talab qiladi. Moliyaviy axborotdan ko‘zlanadigan maqsadlarning davlat va mulkdorlar o‘rtasida har doim ham bir xil bo‘lmasligi jahonning ko‘plab mamlakatlarida uchraydigan holat hisoblanadi.

Bugungi kunda O‘zbekiston xalqaro investitsiya bozorlariga chiqish, shuningdek, xorijiy investitsiyalarni jalb etish jarayonlarini jadallashtirish yo‘lidan bormoqda. Shu sababli ham Prezident qarorida MHXSga o‘tish bo‘yicha belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida va sifatli bajarish mas‘uliyati vazirliklar, idoralar hamda tashkilotlar rahbarlari zimmasiga yuklatilgan.

MHXSni joriy etish jarayonida mutaxassislar va o‘quv qo‘llanmalari yetishmasligi muammosi mavjudligi haqida turli fikr-mulohazalar bildirilmoqda. Biroq vaziyat chuqur tahlil qilinganda, ushbu yo‘nalishda muayyan tajriba va salohiyat shakllanganini ko‘rish mumkin. Jumladan, buxgalterlar va auditorlarning professional uyushmalari xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda, shuningdek, Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi) ko‘magida amalga oshirgan o‘quv loyihalari hamda buxgalterlarni sertifikatlash tizimlari O‘zbekistonda 1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab faol rivojlanib kelmoqda.

Shuningdek, 2000-yillarning boshidan buyon audit va konsalting xizmatlari ko‘rsatuvchi xalqaro kompaniyalar – “Katta to‘rtlik” (PwC, Ernst & Young, Deloitte va KPMG) MHXS hamda Auditning Xalqaro Standartlari talablariga muvofiq ravishda O‘zbekistonda faoliyat yuritib kelmoqda. Bu esa mamlakatda xalqaro moliyaviy hisobot amaliyotlarini joriy etish bo‘yicha muhim tajriba va bilimlar bazasi shakllanishiga xizmat qilgan.

Prezident qarori e‘lon qilingandan so‘ng, ijtimoiy tarmoqlardagi buxgalterlar hamjamiyatlarida turli fikrlar va munozaralar yuzaga keldi. Buni tabiiy holat sifatida baholash mumkin, chunki yangi bilimlarni o‘zlashtirish, zamonaviy standartlar asosida ishlashga moslashish hamda yangi yondashuvlarni amaliyotga tatbiq etish muayyan vaqt va sa‘y-harakatlarni talab qiladi. Shu bilan birga, ushbu jarayon milliy buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro talablarga moslashtirish, moliyaviy axborotlarning shaffofligi va ishonchililigini oshirish hamda mamlakat investitsion jozibadorligini kuchaytirishga xizmat qiladi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha vazifalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida⁴ aniq belgilab berilgan.

O'zbekistonning moliyaviy hisobot xalqaro standartlari tizimiga o'tishidagi asosiy masalalar quyidagilardan iborat:

Bugungi kungacha yuritilgan milliy moliyaviy hisobot tizimining zamonaviy xalqaro talablar bilan to'liq uyg'unlashmaganligi.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari mutaxassislar tomonidan yetarli darajada o'rganilmaganligi va ular haqidagi ma'lumotlarning cheklanganligi.

Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlari tizimini chuqur biladigan malakali kadrlarning yetishmasligi.

Yuqorida ko'rib chiqilgan masalalardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasining buxgalteriya hisobining milliy tizimidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tishida quyidagi muhim vazifalar mavjud, degan xulosaga kelish mumkin:

- respublikaga ko'plab xorijiy investorlarning kirib kelayotgani sababli amaldagi buxgalteriya hisobining milliy tizimini xorijiy investorlar talablariga yanada moslashtirish;

- moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida ishlay oladigan malakali mutaxassis kadrlarni tayyorlash;

- respublikada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini davlat tili va boshqa tillarga tarjima qilish bo'yicha yagona talablarni shakllantirish.

Bizning fikrimizcha, ko'rsatilgan masalalarning izchil hal etilishi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori⁵ talablarining samarali bajarilishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu O'zbekiston Respublikasida buxgalteriya hisobining milliy tizimidan moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga bosqichma-bosqich va to'laqonli o'tish jarayonini jadallashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ergasheva Sh.T. Razvitiye bukhgalterskogo ucheta v Uzbekistane na osnove mezhdunarodnykh standartov / Sh.T. Ergasheva. – Toshkent: TDIU, 2020.
2. Eshov M.P. O'zbekistonda buxgalteriya hisobi va auditni xalqaro standartlar asosida tashkil etishning ustuvor masalalari / M.P. Eshov. – Toshkent: TDIU, 2020.
3. Ortiqov X.A. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish – davr talabi / X.A. Ortiqov. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi (hozirgi Iqtisodiyot va moliya vazirligi), 2020.
4. Rizayev N.K. Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini Moliyaviy Hisobotning Xalqaro Standartlariga (MHXS) muvofiqlashtirish masalalari / N.K. Rizaev. – Toshkent: Toshkent moliya instituti, 2020.

⁴ <https://lex.uz/docs/-4746047>

⁵ <https://lex.uz/docs/-4746047>

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA SUN'IY INTELLEKT

Ilmiy elektron jurnal

(MAXSUS SON)

Bosh muharriri: Mo'minov Baxodir Boltaevich

Bosh muharrir o'rinbosari: Nasimov Rashid

Muharrir: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Musahhih: Ulug'ova Baxtiniso Norpulatovna

Dizayner: Egamberdiev Elyor

“Raqamli transformatsiya va sun'iy intellekt” jurnali 23.10.2020-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№1124 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

